

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MAMIRALIYEV QUVONCH QURVONBOY O‘G‘LI

**ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA JANRLAR
MODIFIKATSIYASI**

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

The contents of dissertation abstract for a doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Mamiraliyev Quvonch Qurvonboy o‘g‘li

Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida janrlar modifikatsiyasi3

Mamiraliyev Quvonch Qurvonboy o‘g‘li

Modification of genres in Uzbek poetry of the period of independence.....23

Мамиралиев Қувонч Қурвонбой ўғли

Модификация жанров узбекской поэзии периода независимости.....44

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....47

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MAMIRALIYEV QUVONCH QURVONBOY O‘G‘LI

**ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA JANRLAR
MODIFIKATSIYASI**

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi tarixida she'r ilmi, janr va shakllar nazariyasiga oid qarashlar, xususan, janrlar modifikatsiyasi hodisasini o'rganish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Sababi muayyan bir xalq adabiyotida yuzaga kelgan yangi janr o'zining takomil bosqichini bosib o'tib, o'sha xalqqa daxldorlik kasb etadi va "xususiy mulki"ga aylanadi. Natijada davr sahifalarida badiiy adabiyot o'sha janrdagi asarlari, mazmunga boy mavzular olami bilan yashaydi va keyingi davrlarga ta'sir ko'rsatadi. Har bir millatning madaniyati, tafakkuri, yaratuvchanlik salohiyati so'zdagi bitiklari bilan belgilanadi. Shu ma'noda jahon va milliy adabiyotdagi mavjud shakl va mazmunni ijodiy o'zlashtirish, ularga yangicha qiyofa, mazmun bag'ishlash tarix bilan zamonni bog'laydigan muhim jarayonlardan biridir.

Dunyo adabiyotshunosligida lirik asarlarning shakliy-uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish borasida muayyan natijalarga erishilgan. Badiiy so'zning shaklga ega bo'lishi, qanday tarzda kitobxonga yetib borishida muayyan qonuniyatlar mavjud. Shakl ichida harakatlanuvchi mazmunning tashqi jihatdan o'z qolipiga ega bo'lishi olamdagi barcha jismlar singari tabiiy holdir. Janr tarixning ishtirokchisi bo'lgan shaxsning adabiy, estetik ehtiyojlari natijasida ifoda shakli bo'lib yuzaga chiqadi. Har bir davr ijodkori qulay va ta'sirchan shaklni, mazmunni izlaydi. Olam bir tekisda rivojlanmaganidek, davr o'tishi bilan bir janr o'rnini boshqasi egallaydi yoki modifikatsiya hodisasiga uchraydi. Zero, modifikatsiya hodisasining paydo bo'lishida xalqlarning o'zaro aloqasi, adabiy ta'sir, ijtimoiy-siyosiy hamda mintaqaviy integratsiyalashuvi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek she'riyati istiqlol yillarida ko'plab erkinliklarga ega bo'ldi. Mumtoz adabiy janrlar, an'anaviy mavzulardan foydalanish imkoniyati ortdi. Bu yo'lda xalq ijodining oltin bisoti, ramz va majozga to'yingan Sharq adabiyoti, ma'rifatga yo'g'rilgan diniy-tasavvufiy adabiyotdan oziqlandi, ularni ijodiy o'zlashtirdi. Bugun dunyoga tobora integratsiyalashib borayotgan millat adabiyotida ham yangicha janrlar, shakllar urfga kirmoqdaki, ularning shakliy belgilari, xos xususiyatlarini o'rganish ustuvor vazifa hisoblanadi. Zero, "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega"¹. She'riyatda yuzaga kelgan yangi adabiy muhit ijodkorlar dunyoqarashida o'zgarishlar yasaydi va bu jarayon istiqlol davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi hodisasini yuzaga keltiradi. Mana shu muammoni istiqlol davri shoirlari ijodi misolida nazariy jihatdan o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi

¹ Mirziyoyev Sh. «Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi» // <https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-san'at>

farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Adabiyotda modifikatsiya hodisasi masalalari jahon adabiyotshunosligida M.A.Petrova, S.Y.Artyomova, A.A.Borovskaya, T.V.Koshurnikova, E.M.Stavseva, N.D.Tamarchenko, V.I.Tyupa, S.N.Broytman, M.A.Alekseyeva, A.R.Borova, J.A.Burtseva, G.A.Binova kabi olimlar va boshqa bir qator adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilgan². Jumladan, qozog‘istonlik professor A.Temirbolatning “Zamonaviy adabiyotda roman janrining transformatsiyasi” (Transformation of Novel’s Genre in Modern Literature)³ tadqiqotida roman janridagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Ralph Cohen muharrirligi ostida nashr etilgan “Transformations of a Genre” (“Janr transformatsiyasi”)⁴ kitobida janr va uning shakllari haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, modifikatsiya hodisasi, asosan, rus adabiyotshunosligida epik tur janrlari asosida ko‘proq tadqiq etilgan. Rus adabiyotshunosi M.A.Petrovaning “S.Yesenin lirikasidagi klassik janr shakllari va ulardagi badiiy modifikatsiya” nomli tadqiqotida Sergey Yesenin ijodidagi elegiya janrning evolyutsiyasi va genezisi masalalari alohida yoritilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida lirik asarlarning janr va ularning mazmunni bera olishdagi xos xususiyatlari bir qator olimlarning nazariy qarashlarida bayon qilingan. Jumladan, Abdurauf Fitrat, M.Ibrohimov, Izzat Sulton, U.To‘ychiyev, B.Sarimsoqov, T.Boboyev, N.Rahimjonov, Jamol Kamol, Q.Yo‘ldoshev, A.Ulug‘ov, D.Quronov, U.Hamdlov, N.Afoqova, L.Sharipova, Q.Yo‘lchiyev

² Артёмов Ю. С. Трансформация жанров русской лирики в XX веке. – Тверь, 2020; Боровская А. А. Жанровые трансформации в русской поэзии первой трети XX века. – Астрахань, 2009; Петрова А. М. Классические жанровые формы и их художественные модификации в лирике С.А. Есенина. – М., 2013; Кошурникова Т. В. Жанровые модификации в творчестве Кручина. – М., 2008; Ставцева Е. М. Жанровые трансформации в современной Челябинской прозе. – Екатеринбург, 2016. – 215 с; Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. – М.: Академия, 2004.

³ Mediterranean Journal of Social Sciences MCSER Publishing, Rome-Italy. Vol 6 No 4 S2 July 2015. file:///C:/Users/User/Downloads/Transformation_of_Novels_Genre_in_Modern_Literatu.pdf.

⁴ Transformations of a Genre. Ralph Cohen. University of Virginia. 2021.

kabi adabiyotshunos olimlarning izlanishlarida lirik asarlarning janr belgilari, yangi janrlarning paydo bo'lishi turli nazariy mezonlar asosida tahlil qilingan⁵.

Jumladan, Q.Yo'lchiyevning "O'zbek she'riyatida birlik va uchlik she'r poetikasi" nomli tadqiqotida kichik janrlar nazariyasi tadqiq etildi⁶. Nazariyotchi olim D.Quronovning "Adabiyot nazariyasi asoslari" kitobida Anvar Obidjon (ignabarg, uchchanoq), Azim Suyun (qayirma), Farida Afro'z (fiqra, tasbeh) kabi shoirlar ijodidagi yangi she'riy shakllarning ijodiy eksperiment tarzida vujudga kelgani ta'kidlanadi. Tadqiqotchi N.Keldiyorova Azim Suyun ijodidagi "qayirma" janrini shakliy va mazmuniy tomondan tahlil qiladi⁷. N.Sultonova o'zbek adabiyotida modifikatsiya hodisasini roman janri miqyosida tadqiq etadi. Mazkur tadqiqotda Isajon Sulton romanlaridagi badiiy modifikatsiya hodisasi o'rganilgan⁸.

She'riy janrlar modifikatsiyasi borasidagi ilk tadqiqot N.Sharopova tomonidan boshlangan, ammo tadqiqotchining vafoti sababli oxiriga yetmagan. U filologiya fanlari doktori S.Miliyev rahbarligida "XX asr 60 – 90-yillarida o'zbek lirikasida janrlar modifikatsiyasi"⁹ ilmiy tadqiqotining ba'zi qismlarini yozishga ulgurgan. Xususan, u g'azal janrining istiqlool yillaridagi yangi hayoti, g'arb she'riyatidan o'zlashgan janrlar tadriji (sonet, rondo, rondel, oktava), mumtoz yapon lirik janrlari (xokku, tanka)ning o'zbek she'riyatida o'rni kabi masalalar yuzasidan o'zining nazariy qarashlarini bayon etib ketgan.

Ko'rinadiki, o'zbek adabiyotida lirik asarlardagi janrlar modifikatsiyasi hali to'laqonli o'rganilmagan. Istiqlool davri o'zbek she'riyatida janrlar masalasiga va adabiy jarayonga bildirilgan turli ilmiy-nazariy qarashlarga o'z fikrimizni bildirgan holda, istiqlool yillarida lirik janrlarning yangi shakllari vujudga kelishi, janr mazmun-mundarijasining o'zgarishi va asosiy xususiyatlarini yaxlit holda o'rganish zarur, degan xulosaga keldik.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida olib borilayotgan "Filologiya ilmiga zamonaviy yondashuvlar" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi istiqlool davri o'zbek she'riyatining yangilanish tamoyillari, lirikada shakl va mazmun uyg'unligi, globallashuv jarayoni va olam

⁵ Фитрат. Шеър ва шоирлик // Мулоқот. – Тошкент, 1996. №4. – Б. 52-58; Иброҳимов М. Ўзбек совет поэзияси жанрларининг таркиб топиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 224 б.; Саримсоқов Б. Ўзбек шеър системалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. №5. – Б. 38-45; Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.; Жамол Камол. Шеър санъати. 4 жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 448 б.; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.; Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – 475 b.; Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 288 б.; Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2017. – 347 б.; Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърӣй шакллар тараққиёти: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005 – 161 б.; Юлчиев Қ. Ўзбек шеърӣятада бирлик ва учлик шеър поэтикаси: Филол. фан. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2017. – 149 б.

⁶ Юлчиев Қ. Ўзбек шеърӣятада бирлик ва учлик шеър поэтикаси: Филол. фан. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2017. – Б. 49.

⁷ Келдиёрова Н. Замонавий ўзбек шеърӣятада поэтик образ ва унинг бадий талқини: Филол. фан. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 161 б.

⁸ Sultonova N. Yangilanayotgan o'zbek romani: badiiy modifikatsiya. – Toshkent: Lesson press, 2021. – 167 б.

⁹ Шаропова Н. Сукунатнинг мангу кўшиғи. – Тошкент: Фан зиё, 2021. – 180 б.

hodisalariga ongli yondashuv, ijodkor tafakkuridagi o'zgarishlar, falsafiy mushohada va o'quvchida bashariyatga daxldorlik hissini uyg'otish mas'uliyati o'laroq ijod etilgan yangi she'riy shakllar va janrlarni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Asosiy maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot oldiga quyidagi ilmiy vazifalar qo'yildi:

istiqlol davri o'zbek lirikasini janriy guruhlashda shakl va mazmun uyg'unligini asoslash, adabiyotshunos olimlarning she'riy janrlar tasnifi borasidagi nazariy qarashlarini tadqiq etish;

istiqlol davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi hodisasining kelib chiqish sabablari, bu jarayonlarga ijtimoiy, siyosiy, iqtidosiy, psixologik, tabiiy jarayonlarning ta'siri masalasini ko'rib chiqish;

badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar natijasida lirikada yangi she'riy shakl va janrlarning paydo bo'lishi, g'arb she'riyatidan o'tgan janrlarning o'zbek she'riyatidagi "yangi hayoti"i, shakliiy hamda mazmunii yangilanishlarni tadqiq etish;

istiqlol davri o'zbek she'riyatida folklorizmning janrlarga ta'siri, janrlar diffuziyasi, og'zaki ijod janrlarining yangi adabiy shakllar va janrlar yaratilishidagi modifikatsiya jarayonidagi o'rni va vazifasini belgilash;

mumtoz adabiy janrlar, ma'rifiy adabiyot, tasavvuf, majoz, an'anaviy obrazlar, timsollarning istiqlool davri o'zbek she'riyatida yangicha qiyofa kasb etishini tekshirish;

aruz va barmoq vaznidagi she'rlarning aralash qo'llanishida modifikatsiya hodisasining yuzaga kelishini izohlash, natijada zamon bilan birga adabiy janrlarning ham o'zgarib, rivojlanib borish bosqichlarini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Shavkat Rahmon, Abduvali Qutbiddin, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Aziz Said, Nodira Afoqova va boshqa ijodkorlarning modifikatsiya jarayonini vujudga keltirgan she'rlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti istiqlool davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi hodisasini yuzaga keltiruvchi omillar, mumtoz janrlar, diniy-irfonii adabiyot, xalq og'zaki ijodining davr she'riyatiga ta'siri, lirik asarlarda shakl va mazmun uyg'unligi masalalari hamda ijtimoiy muhitning ijodkor dunyoqarashiga ta'siri va shunga muvofiq she'riyatdagi shakliiy-mazmunii o'zgarishlarni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usuli. Dissertatsiyada struktural, formal, tarixii-qiyosii, biografik, psixologik, sotsiologik metod va tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

istiqlol davri o'zbek she'riyatida lirik janrlarning yangilanish tamoyillari va tadrijiy takomili, g'arb adabiyotidan kirib kelgan janrlarning o'zbek lirikasidagi yangicha ifodasi, davr she'riyatida modifikatsiya jarayonining yuzaga kelish omillari, fan-texnika taraqqiyotining inson tafakkuri, xususan, badiiy adabiyotga ta'siri masalalari yoritilgan;

istiqlol davri o'zbek she'riyatida yaratilgan mumtoz janrlar va ularning zamonaviy she'riy shakllar bilan uyg'unlashuvi, tasavvufii mazmundagi she'rlarning barmoq vazni yoki modern shakllari ko'rinishida ijod etilishi, mumtoz adabiyotdan oziqlanish, an'ananing yangilanishi, she'rda tuyg'ularning qorishiq

tarzda berilishi (paralelaks) natijasida badiiy modifikatsiya hodisasining namoyon bo'lishi masalalari asoslangan;

zamonaviy o'zbek she'riyatida ijodkorning ijtimoiy, madaniy hayotga munosabati, tabiat hodisalari va unda insonning o'zni masalasi, umuman, badiiy tafakkurdagi evrilishlar natijasida shaklning mazmunga bo'ysunishi yoki shakl talabi bilan mazmunning tig'izlashib borishi; folklorizmning davr she'riyatiga ta'siri, janrlar stilizatsiyasi oqibatida maydonga kelgan yangi she'riy shakllarning nazariy asoslari ochib berilgan;

istiqlol davri o'zbek lirikasida *ignabarg, uchchanoq, qayirma, fiqra, eshsonet, qo'shsatr, uchshoda, shashqator, beshnavo* singari maxsus janrlarning paydo bo'lishi, ularning nazariy qonun-qoidolari; internet adabiyotining yuzaga kelishi va rivojlanishi, turfa kayfiyat, tuyg'ular, obrazlarning aralashuvi natijasida qorishiq janrlarning vujudga kelishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

istiqlol davri o'zbek she'riyatida shakliy izlanishlar taraqqiy etayotgan dunyo va o'zligini izlashga intilayotgan inson bilan bog'liq holda yuzaga chiqayotgani, o'quvchiga hissiy-ruhiy ta'sir ko'rsatish, ijodkorda davr kishisini ma'naviy tarbiyalash mas'uliyatining ortib borishi, natijada ichki jazba she'rda qisqa, lo'nda, hayqiriq, nido shaklida yuzaga chiqishi kabi ko'plab davr she'riyatining qiyofasini belgilaydigan xususiyatlar ochib berilgan;

diniy, fikr erkinligi, muloqotlar almashinuvi tezlashgan zamonaviy dunyoda badiiy adabiyotdagi shakliy-uslubiy izlanishlar, adabiyot tarixida janrlar hayotiy ehtiyojlar natijasida o'zgarishga uchrab turishi, qaysidir davrda urf bo'lgan janr, mavzular ma'lum vaqt sustlashib, tarixning ma'lum bir bosqichlarida yangicha qiyofa, mazmun kasb etishi, o'z davri muammolarini teran anglagan ijodkorlar ularning faol yaratuvchilari bo'lib maydonga chiqishi kabi masalalar davr – ijodkor – badiiy tafakkur – janr – shakl – mazmun va kitobxon tartibida tizimli yoritilgan.

istiqlol davri o'zbek lirikasida yangi janrlarning paydo bo'lish omillari, davr she'riyatini tashkil qilgan Shavkat Rahmon, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Nodira Afoqova she'rlarida janriy rang-baranglik, sinkretiklik, tuyg'u va zamon kayfiyatidagi qorishiq ifodalarga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Muammoning aniq qo'yilgani, nazariy ma'lumotlar ilmiy manbalar bilan asoslangani, tahlilga tortilgan she'r namunalari zamonaviy tadqiqot metodologiyalari asosida o'rganilgani, xulosalarda ishning mohiyati aniq aks etgani va natijalar amaliyotga tatbiq etilgani hamda ularning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Dissertatsiya natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar zamonaviy o'zbek she'riyati muammolarini hal qilishda, she'riy janrlardagi modifikatsiya jarayonini adabiy-nazariy hodisa sifatida o'rganishda keng foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi. Adabiyotning davr bilan birga rivojlanib borishi, zamonaviylashib, shaxs ongiga ta'sir ko'rsatishga qodir kuchga aylanib borishi, bu yo'lda shakliy va mazmuniy izlanishlarga intilishi kabi masalalar nazariy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu tadqiqot ishi materiallaridan oliy ta'lim tizimida monografiyalar va o'quv adabiyotlarini shakllantirishda, maxsus kurs yoki seminar mashg'ulotlari o'tkazishda, shuningdek, umumta'lim maktablari, litsey, kollejlarning adabiyot o'qituvchilariga metodik qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, erishilgan natijalardan "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishidagi yangi avlod qo'llanmalarini yaratishda foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalari XXI asr o'zbek she'riyatida umumjamiyat kayfiyati va uning adabiy xususiyatlarini shakllantirishda, "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Zamonaviy adabiy jarayon", "Badiiy tahlil asoslari", "She'r ilmi ta'limi", "Globallashuv davri adabiyoti", "Jahon adabiyoti" kurslari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishda tayyor manba, qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: "Istiqlol davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi" tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan:

istiqlol davri o'zbek she'riyatida lirik janrlarning yangilanish tamoyillari va tadrijiy takomili; g'arb adabiyotidan kirib kelgan janrlarning o'zbek lirikasidagi yangicha ifodasi; davr she'riyatida modifikatsiya jarayonining yuzaga kelish omillari; fan-texnika taraqqiyotining inson tafakkuri, xususan, badiiy adabiyotga ta'siri masalalariga oid xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030 "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish" (2017 – 2020-yy.) fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 19-dekabrda 01/4-2741-son ma'lumotnomasi). Natijada istiqlo davri o'zbek she'riyatiga doir adabiyotshunoslikdagi mavjud ilmiy mulohazalar, mumtoz adabiy janrlarning davr she'riyatidagi "yangi hayoti" haqidagi nazariy qarashlar yanada boyitilgan;

mustaqillik davri o'zbek lirikasida mumtoz adabiy janrlar va ularning zamonaviy she'riy shakllar bilan uyg'unligi, tasavvufiy ohangdagi she'rlarning barmoq vaznida yoki modern shakllari ko'rinishida istifoda etilishi, mumtoz adabiyotga yaqinlik, bir she'rda bir nechta tuyg'ularning qorishiq holda kelishi (paralelaks) natijasida badiiy modifikatsiya hodisasining namoyon bo'lishi kabi nazariy masalalar dalillanganligi haqidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan IL-402104474 "Bolalar adabiyoti.uz multimediali elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish" (2021 – 2022-yy.) innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 04/1-2543-son ma'lumotnomasi). Natijada bolalar adabiyoti va folklor janrlarining badiiy adabiyotga ta'siri yangi she'riy shakl hamda janrlarning paydo bo'lishiga zamin yaratganligi borasidagi mulohazalar muhim xulosalar chiqarish imkonini bergan;

zamonaviy o'zbek she'riyatida ijodkorning ijtimoiy, madaniy hamda tabiat hodisalariga munosabati, badiiy tafakkurdagi evrilishlar natijasida shakl va mazmundagi tafovutlar yoki o'zaro mutanosibli; folklorizmning davr she'riyatiga ta'siri, janr stilizatsiyasi hodisasi oqibatida maydonga kelgan yangi she'riy shakllarning adabiy-nazariy jihatlari ochib berilgan xulosalaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" telekanalining "Assalom,

O‘zbekiston!”, “Ko‘ngil obodligi” ko‘rsatuvlarida hamda “Munosabat” tok-shousida foydalanilgan (O‘zbekiston teleradiokanalining 2023-yil 25-oktyabrdagi 02-13-1586-son ma‘lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning davr she‘riyati mavzu ko‘lami, shakliy va mazmuniy o‘zgarishlari, janriy rang-barangligi yuzasidan bilimlari boyishiga, tasavvurlari kengayishiga erishilgan;

istiqlol davri o‘zbek lirikasida ignabarg, uchchanoq, qayirma, fiqra, eshsonet, qo‘shsatr, uchshoda, shashqator, beshnavo singari maxsus janrlarning paydo bo‘lishi, ularning nazariy qonun-qoidalar; internet adabiyotining yuzaga kelishi va rivojlanishi, instashe‘riyat (instapoetry)ning ommalashuvi (asosan, yoshlar ijodi misolida), turfa kayfiyat, tuyg‘ular, obrazlarning aralashuvi natijasida qorishiq janrlarning vujudga kelishi haqidagi qarashlaridan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o‘tkazilgan turli adabiy-ma‘rifiy tadbirlarda, jumladan, yosh ijodkorlar faoliyat olib boradigan “Onajonim – she‘riyat”, “Umid” to‘garagi mashg‘ulotlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyshmasining 2023-yil 30-oktyabrdagi 01-03-3014-son ma‘lumotnomasi). Natijada bugungi adabiy jarayonda yuz berayotgan adabiy-nazariy o‘zgarishlar, zamonaviy she‘riyatda an‘ana va yangilanishlar ta‘sirida she‘riy janrlarning modifikatsiyaga uchragani ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma‘ruzalar va xalqaro saytlarda¹⁰ jamoatchilik e‘tiboriga havola qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 150 sahifadan tashkil topgan.

¹⁰ <https://www.researchgate.net/profile/Quvonch-Mamiraliyev>;
<https://scholar.google.com/citations?user=Hb21i3IAAAAJ&hl=ru> ;
<https://independent.academia.edu/QuvonchMamiraliyev>

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“She'riy janrlarning yangilanishi va tadrijiy takomili”** deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan tarkib topgan. Birinchi faslda **“She'riy janrlarning o'rganilishi va istiqloq davridagi yangilanish tamoyillari”** masalasi tadqiq qilingan. XX asrning oxiridan boshlab o'zbek she'riyati shakl va mazmun jihatidan jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. “Natijada she'riyatimiz asrlar davomida amal qilib kelingan poetik kanonlar inkor qilinib, o'zgargan mazmun-mohiyatga mos yangi shakl bobida izlanishlar davriga kirdi. Bu izlanishlarning eng muhim va she'riyatimizda tub yangilanishga olib kelgan yo'nalishlari sifatida she'rning ritmik-intonatsion sathida, poetik ifoda yo'sini va subyektiv tashkillanishdagi o'zgarishlarni ko'rsatish mumkin”¹¹. Ilm-fanning shiddat bilan rivojlanishi barcha sohalarining mazmun-mohiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu jarayon, o'z navbatida, badiiy adabiyotda shakl va mazmun siljishlarini yuzaga keltirdi. Zero, ijtimoiy voqelikning inson dunyoqarashiga ta'siri va uning poetik tafakkurga ko'chib o'tishi natijasida badiiy asar yuzaga kelar ekan, adabiyot zamonaviy ong mahsuli sifatida maydonga chiqadi. Tadqiqotda o'zgarishga uchrab, yangilanib borayotgan she'riy shakllar janrlar modifikatsiyasi kesimida yoritildi.

Muayyan davrlarda mumtoz she'riyatimiz tarixida ham janrlar modifikatsiyalashuvi sodir bo'lib turgan. Bir janrning elementlari boshqa bir janrlarga ko'chib o'tgan. Ammo ba'zida bu holat modifikatsiya jarayoni emas, janrning turi sifatida ham qayd etilgan. Akademik Izzat Sulton mumtoz lirik janrlar zamonaviy she'riyatda uchragani bilan janrlarga ajratish urf emasligini aytib o'tadi.

Umuman, muayyan janr va uning belgilari tarixiylik asosida yondashishni talab qiladi. Bir janr tarixi boshqasini o'xshamaydi. Bizningcha, mazkur fikr biroz bahstalar. Chunki janr aralash (sinkretik) bo'lishi uchun avval paydo bo'lgan bo'lishi lozim. Janr paydo bo'lgandan so'nggina yillar davomida silliqiladi, takomil yo'lini bosib o'tadi, keyinchalik boshqa janrlar bilan qorishib mutatsiyaga uchrashi mumkin.

Adabiyotshunos N.Afoqova o'zbek jadid adabiyotidagi she'riy shakllar taraqqiyotini tadqiq etar ekan, adabiyotshunoslikda janrlar masalasi hamisha munozarali bo'lib kelganligini, she'riy shakl va janrni ham farqlash lozimligini ta'kidlaydi: “Barmoq vaznidagi she'rni ruboiy, g'azal, tasmit, qit'a kabi janrlar sirasiga kiritish janriy tasnifda mazmunni birlamchi hisoblash; g'azal-qasida, muvashshah-g'azal, tuyuq-ruboiy kabi atamalar esa janrni mazmun va shakl

¹¹Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърияти. – Т.: Адиб, 2012. – Б. 274.

uyg'unligida tushunish hosilasidir"¹². Ko'rinadiki, mazmun va shakl uyg'unligidagi she'riy shakllarda janrlar modifikatsiyasi kuzatiladi. XIX – XX asrlarga qadar Yevropa she'rshunosligida lirik janrlar va she'riy shakllar deyarli farqlanganini ko'rish mumkin. Shuning uchun lirik janrlar qamrab olingan mazmun va mohiyatidan, she'riy asar pafosidan kelib chiqqan holda belgilangan.

Bobning ikkinchi fasli **“She'riyatda modifikatsiya hodisasining paydo bo'lishi va o'ziga xosliklari”** deb nomlanadi. Modifikatsiya tushunchasi faqat adabiy-badiiy jarayonlarga emas, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy, psixologik, iqtisodiy, siyosiy hayotiga ham xos hodisadir. Ma'lum bir mezonlar, qonuniyatlarning boshqa turlar bilan muayyan chegaralarda birlashishi, singib ketishi, o'zgarishlarga uchrashini anglatadi. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra, modifikatsiya – ko'rinish, turlanish, shaklini o'zgartirish, o'zgargan shakl, holat degan ma'noni bildiradi.

Modifikatsiya hodisasi o'z navbatida, adabiy-badiiy jarayonlarga ham taalluqlidir. Yaxlit holatda mavjud bo'lgan janrlardan, masalan, xalq qahramonlik eposidan boshqa epik janrlarning shakllanishi, shaklini o'zgartirgan holatda qayta paydo bo'lishi janr genezisi va modifikatsiyasiga oid tadqiqotlarda ham qayd etib o'tilgan¹³.

Umuman olganda, adabiyot tarixida ham janrlarda modifikatsiya jarayoni doimiy tarzda davom etib turgan. Buning asosiy sababi esa turli xil madaniyatlar, adabiyotlar o'rtasidagi adabiy aloqalar, davrlar o'tishi bilan inson tafakkurida yuz bergan o'zgarishlar, ijodiy individuallik rolining ortib borishi kabi ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, falsafiy yangilanishlar bo'lgan. Ushbu hodisaga munosabat bildirgan adabiyotshunos N.Sultonova shunday yozadi: “...klassik darajadagi adabiyotda ko'ringan janr dekanonizatsiyasi hodisasi zamonaviy adabiyotda ko'zga tashlanayotgan badiiy modifikatsiyaga nisbatan tartibli, muvozanatga ega va poetik mukammal qatlamlarda sodir bo'lgan. Bugungi badiiy modifikatsiya jarayonlari esa ko'proq adabiyotning ommalashuvi, san'at turlarining ko'payishi va mushtaraklashuvi oqibatida sodir bo'layotgan ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi”¹⁴. Ushbu mavzu – janrlar modifikatsiyasi doirasida keyingi davrlarda qilinayotgan qator tadqiqotlarda mazkur hodisa adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan emas, zamonaviy adabiy jarayon misolida tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, janrlar modifikatsiyasi hodisasi rus adabiyotshunosligida ko'p bora tadqiq etilgan.

Professor U.Hamdammov yangi o'zbek she'riyatini tadqiq etar ekan, lirikada vaznlar almashinuvi va uning omillariga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, olim she'riyatda bo'layotgan o'zgarishlar, aruzdan barmoq vazniga o'tishdagi jarayonlar borasida qator tahlillarni amalga oshirgan. Jumladan, Furqatning 1890-yili yozilgan

¹² Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърлий шакллар тараққиёти: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 161.

¹³ Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – М., 1966; Аристотель. Поэтика. Русчадан М.Махмудов, У.Тўйчиев таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980; Боров Ю. Эстетика. – М., 1981; Пospelов Г.Н. Теория литературы. – М.: Выс. школа, 1978; Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Выс. школа, 1990; Теория литературы. В двух томах. Том 1. Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. – М.: Академия, 2004.

¹⁴ Sultonova N.Yangilanayotgan o'zbek romani: badiiy modifikatsiya. Monografiya. – T.: Lesson press, 2021. – B. 13.

“Vistavka xususida” she’ri mumtoz she’riyatdagi masnaviy shaklida yaratilgani, biroq unda ijodiy niyat va an’anaviy shakl muvofiq emasligini ta’kidlaydi. She’rning vazni, til unsurlari, ifoda tarzi, obrazlari mumtoz she’riyatga mos, ammo publitsistik mazmunda ekanligi, shuningdek, she’rning ba’zi o’rinlarida rus tilidan o’zlashgan so’zlarning mavjudligi aruz ohanglariga uyg’unlashmagan¹⁵. Olim bunga sabab qilib ifodalanayotgan yangi mazmunning mavjud shaklga mos kelmasligini aytadi. Darhaqiqat, she’rning mazmunidagi o’zgarishlar, yuqorida aytilganidek, jamiyatdagi o’zgarishlar, davr kayfiyati bilan bog’liq hodisadir. Shu davrlardan boshlab yangi mazmun poetik shaklning o’zgarishiga ehtiyoj seza boshlagan edi.

Istiqlol davri o’zbek she’riyatida yuzaga kelayotgan yangi she’riy shakllar ijodkor individualligini ham namoyon etmoqda. Jumladan, iste’dodli shoir Abdunabi Boyqo’ziyev “beshnavo”, Subhoniy taxallusi bilan ijod qiladigan shoir Isroil Subhonov “shashqator”, Safar Olloyor “eshsonet”, “uchshoda”, “qo’shsatr” deb nomlangan she’riy shakllarda (ushbu she’rlarni muallifning o’zlari janr sifatida belgilashgan) ijod qilib kelmoqda. Bundan tashqari, Abduvali Qutbiddin, Nodira Afoqova ijodida g’azal janrining, Faxriyor ijodida sonet, elegiya janrlarining modifikatsiyaga uchragani alohida hodisa sanaladi.

Davr va ijodkor dunyoqarashining tubdan o’zgarishi, badiiy tafakkurning yangilanishi istiqlool davrida lirik asarlarning modifikatsiyaga uchrashiga sabab bo’ldi. Shavkat Rahmon, Bahrom Ro’zimuhammad, Aziz Said, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor, Nodira Afoqova ijodida turli janrlarning rang-barang unsurlari, badiiy modifikatsiya hodisasi yuzaga keldi. Jumladan, g’arb she’riyatidan kirib kelgan janrlarning til, madaniyat, milliy ruh nuqtayi nazaridan o’zgarishga yuz tutishi istiqlool davri o’zbek she’riyatining o’ziga xosligini belgilaydigan hodisa sifatida nazariy asoslash lozim bo’lgan jarayondir. Fikrimizcha, istiqlool davri o’zbek she’riyatida janrlar modifikatsiyasi quyidagicha shakllarda namoyon bo’ladi: a) bir janr unsurlarining o’zgarishi natijasida paydo bo’lgan yangi she’riy shakllar; b) ikki yoki undan ortiq janrlarning o’zaro bir-biriga ta’siri sababli hosil bo’lgan she’riy shakllar; d) xalq og’zaki ijodi janrlarining stilizatsiya qilinishi orqali paydo bo’lgan she’riy shakllar; e) ijodkor individualligi, dunyoqarashining evrilishi natijasida yaratilgan janrlar, she’riy shakllar (qayirma, ignabarg, uchchanoq, fiqra, tasbeh, eshsonet, qo’shsatr, uchshoda, shashqator).

Ishning ikkinchi bobida ilmiy muammo **“Istiqlol davri she’riyatida mumtoz adabiyot va folklor an’analari modifikatsiyasi”** tarzida belgilangan. Bobning birinchi faslida **“Mumtoz adabiy an’analari va modern ohang uyg’unligi”** masalasi o’rganilgan. Istiqlool davri o’zbek she’riyati obrazlar turfaligi, aruz va barmoq vaznidagi she’rlarning uyg’unligi bilan xoslanadi. XX asr boshlaridan barmoq vazniga o’tish (xususan, Cho’lpon ijodi misolida) boshlangan bo’lsa-da, aslida ilgariroq barmoqqa o’tish uchun zamin tayyorlangan edi. Muqimiy, Furqat, Avaz O’tar, Maxmur kabi shoirlar she’rlarida obrazlar va lirik qahramonlar o’zgardi, mazmunan ijtimoiy ruh ustunlik qila boshladi. Bu davr she’riyatida g’azal janrining tabiatini belgilovchi ishq-muhabbat mavzusidagi she’rlar barobarida adabiyotning ijtimoiy hayotga yaqinlashuvi kuzatiladi.

¹⁵ Улугбек Хамдам. Янги ўзбек шеърияти. – Т.: Адиб, 2012. – Б. 199.

Istiqlol davrida qalam tebratgan shoirlar ijodida mumtoz she'riyatga ergashish turli she'riy janrlar va shakllar o'zgarishini yuzaga keltirgan. Xususan, Abduvali Qutbiddin ijodida tasavvufiy ohanglar, mumtoz she'riy janrlarga hamohanglik, turli she'riy shakllar inkishofi kuzatiladi. Shoir ba'zi she'rlarida qo'shma vaznlar, oq she'r, erkin vaznlardan ham foydalanadi. Abduvali Qutbiddinning "Bor" she'riy to'plamidagi "Visol" she'ri qo'shma vaznda yozilgan:

*Yig'ladim. Hovuchim to'la suv bo'ldi,
Tishimdan qon sizar, yurak – chanqovuz.
Boshingni eg, jonim, majnuntol kabi,
Bu hovuz¹⁶.*

Ushbu she'rning bir, ikki, uchinchi misralari 11 bo'g'inda, to'rtinchi misrasi esa 3 bo'g'in. Mazkur she'r to'rt misradan iborat va u qo'shma vaznda yozilgan. Odatda, bir she'rda ikki yoki undan ortiq turli bo'g'indagi misralarning mavjudligi qo'shma vaznga misol bo'la oladi. Chanqovuz va hovuz so'zlari esa qofiyadosh bo'lib, "z" harfi ravviy bo'lib kelgan. Shoir yurakni chanqovuzga, ko'zyoshlarga to'lgan hovuchini esa hovuzga o'xshatadi. She'rni "egilsak sochimiz chirmashibdi-ya, qo'shib ketibdi ko'zlarimiz", – deya yakunlaydi. Mumtoz ohang va zamonaviy shakl uyg'unligida bitilgan ushbu she'rni modifikatsiya hodisasi sababli ma'lum bir janrga mansub, deb belgilay olmaymiz.

Aziz Said ijodida ham mumtoz ohanglar modern shakllarda namoyon bo'ladi. Abduvali Qutbiddin ijodiga hamohang tarzda tasavvufiy mazmun yetakchilik qiladi. Xususan, "Armon" nomli she'ri har bandi uch misradan tashkil topgan bo'lib, qofiyalanishi ham har bandda turlicha. She'rda yetakchi vazifa bajargan dengiz, tog', yoshlik, xayol kabi obrazlarga har bandda alohida urg'u beriladi. Shuningdek, Aziz Saidning ko'pgina she'rlarida Ahmad Yassaviy hikmatlari ta'siri ham seziladi:

*Dil berganim dili mandan qocharo,
Qo'l berganim tishlab uzib otaro,
Yo'l berganim yo'lda meni sotaro,
Ey Xudoyo, bu o'yindan ne nash'u namo bo'ldi?¹⁷*

She'r barmoq vaznida yozilgan. Ushbu she'r uch banddan iborat bo'lib, 12 misradan tashkil topgan. Qofiyalanishi a-a-a-b, d-d-d-b, e-e-e-b shaklida bo'lib, "Ey Xudoyo, bu o'yindan ne nash'u namo bo'ldi?" misrasi har band oxirida naqorat sifatida takrorlanib keladi. She'rning ikki bandi 12 bo'g'indan, bir bandi esa (o'rtadagi bandi) 11 bo'g'indan iborat bo'lib, 6+6; 6+5 tarzida turoqlangan. Naqorat esa 15 bo'g'in. Ahmad Yassaviy she'rlaridagi barmoq vazniga xos qulaylik, hikmatga yo'g'rilgan tarbiyaviy mazmun Aziz Said ijodiga bevosita ta'sir ko'rsatgani shakl, ifoda uslubi, mazmunda yaqqol namoyon bo'lgan. Munojot, Yaratganga iltijo qilish mazmunidagi she'rlaridagi orif inson qalbi, o'zlikni anglash, poklanish kabi tushunchalar ham bugungi davr kishisi ehtiyoji o'laroq yuzaga chiqqan deyish mumkin.

O'zining modern uslubidagi she'rlari bilan ajralib turuvchi shoirlardan biri Bahrom Ro'zimuhammad ijodida ham mumtoz adabiyotning ta'siri sezilib turadi.

¹⁶ Абдували Қутбиддин. Бор. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 16.

¹⁷ Азиз Саид. Юлдузларга термулди ҳаёл // Ўзбек адабиёти ва санъати, 2021. – № 1. – Б. 5.

Shoir she'rlaridan vazn yoki qofiyani topib bo'lmaydi. Uning ko'p she'rlari nasrdagi nazmga o'xshaydi. Shoir har aytar so'zini o'zi xohlagan uslubda ifodalaydi. Masalan, shoirning "Qomat" nomli she'ri Alisher Navoiyning "Qomat" radifli g'azalidan ta'sirlanib yozilgan. Shoir she'rga Navoiyning aynan shu g'azalidan ikki baytni epigraf qilib keltiradi, ammo she'rni o'zgacha yo'sinda davom ettiradi. Shoir mazmun-mohiyatni Sharq adabiyotidan olsa, shaklni g'arbdan oladi. Sababi Bahrom Ro'zimuhammad kunbotish adabiyotini yaxshi o'zlashtirgan, boshqa tillardan o'zbek tiliga asarlar ham tarjima qilgan. Tabiiyki, shoir she'riyatida G'arb va Sharq she'riyatiga xos unsurlar sintezlashgan va o'ziga xos yo'sinda yangicha milliy qiyofa kasb etgan.

Mumtoz Sharq va G'arb adabiyoti ta'siridagi she'rlarni Nodira Afoqova ijodida ham uchratamiz. Uning "Qora navo", "Bizning era", "Yolg'izning yori" kabi she'riy to'plamlarida mumtoz va zamonaviy ohanglar uyg'unligi kuzatiladi. Ayniqsa, "Qora navo" she'riy to'plamidagi she'rlar janr va mavzu ko'lami jihatidan an'anaviy mumtoz adabiyot va tasavvufiy mazmunda bitilgani bilan alohida qimmatga ega. N.Afoqova ijodida barmoq va aruz vaznida yozilgan she'rlar uyg'unlik kasb etgan. G'azal, muxammas janridagi, masnaviy shaklida yozilgan yoki "Arbain" va Umar Xayyom ruboiylari ta'sirida bitilgan she'rlarida mumtoz adabiyotning nafasi, diniy-tasavvufiy obrazlar yaqqol namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, Nodira Afoqova ijodida janrlar rang-barangligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, shoira ijodini tashkil etgan janr va mavzu ko'lamining o'q ildizi mumtoz adabiyotimizga borib taqaladi. Mana shu adabiy jarayon bugungi o'zbek lirikasi she'riy shakllari, janrlari va mavzu doirasi bilan aralashib ketishi natijasida she'riyatda badiiy modifikatsiya hodisasini yuzaga keltiradi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli "**Istiqlol davri she'riyatida folklorizm**" deb nomlangan. Jahon va o'zbek adabiyotida folklordan foydalanish qadim asrlardan beri mavjud bo'lib kelgan, faqat turli davrlarda turlicha kechgan. Xususan, yozma adabiyot folklordan janr, vazn va qofiya qo'llashni, syujetlarni o'zlashtirib, taraqqiy etib bordi. Mif, afsona, rivoyat va boshqa ko'plab janrlarning o'zbek she'riyatiga ta'sir doirasi kengaydi. Alla, yor-yor kabi folklor janrlari istiqlool davri o'zbek she'riyatiga ham ko'cha boshladi. Bu esa mazkur davr she'riyatida folklorizmning yangi ko'rinishlarini paydo qildi.

Faxriyorning bir qator she'rlari folklor an'analari bilan hamohang. Jumladan, shoirning "Ayolg'u" nomli to'plamida folklorizm unsurlari mavjud bir necha she'rlarni ko'ramiz:

Keldigim, kelmaging bunchalar qiyin?

Kuldigim, kulmaging bunchalar qiyin?

Bildigim, bilmaging bunchalar qiyin?

*Suydim, allayor-allayor, kuydim, allayor-allayor!*¹⁸

1999-yilda yozilgan ushbu she'r xalq og'zaki ijodi ohanglarida bitilgan. Olti banddan iborat ushbu she'rning naqoratida "Suydim, allayor-allayor, kuydim, allayor-allayor!" misralari takrorlanib kelgan. Ushbu she'rda lirik qahramon yoriga "allayor" deya uning kelmaganidan, kulmaganidan kuyunayotganini aytadi. She'rda

¹⁸ Фахриёр. Аёлгу. –Т.: Шапқ, 2000. –260 б.

oshiq yoriga “Keldigim”, “Kuldigim”, “Bildigim” deya murojaat qiladi va ushbu soʻzlarning bari turkiy soʻz ekanligi asarni yana-da goʻzallashtiradi.

Koʻrinib turibdiki, Faxriyor va modernizm yoʻnalishida qalam tebratadigan koʻplab ijodkorlar inson ibtidosidagi tafakkurni, ruhiyatni qidirganlar. Ularning tabiat bilan uygʻun holatidagi ichki ruhiyat va tafakkur manzaralarini ifodalashga uringanlar. Insonning ibtidoiy tafakkuri esa oʻz-oʻzidan mif, asotir va afsonalarga borib taqaladi.

Shoir Abduvali Qutbiddin ijodida ham folklor motivlari, ohanglari shoirning “Afsonaviy qoʻshiq” sheʼrida afsonaviy bogʻ – Bogʻi Eramga urgʻu berish bilan koʻzga tashlanadi:

*Mirrixda tirik giyoh,
Zuhalda obihayot.
Biqinlarim ogʻriydir,
Boʻlayotirman Gʻirot.
Bogʻi eram, eram,
Yashnayapti yaramo¹⁹.*

Shoir ijodida, asosan, xalq ogʻzaki ijodiga xos obraz yoki motivlarni kuzatamiz. Xalq dostonlarida uchraydigan Gʻirot oti sheʼrdagi poetik ifodani yana-da tiniqlashtirgan. Sheʼrdagi lirik qahramon xayolan Bogʻi Eramga uchish chogʻida Mirrixni, Zuhal yulduzini koʻradi va oʻzini Gʻirotga oʻxshatadi.

Sheʼrdagi mazmun esa Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi Boyazid Bistomiy va uning shogirdi oʻrtasida kechgan hikoyatga asoslangan. Hikoyatda Boyazid Bistomiy shogirdiga shuncha yil yashab birorta inson topolmadim, deya taʼkidlaydi. Sheʼrda esa lirik qahramon bizning qadamlarimiz togʻday toʻp-toʻp, ammo odamni payqamadim, koʻrmadim deya, Bogʻi Eramga talpinadi. Mazkur bogʻ Sharq xalqlari ogʻzaki ijodida parilar makoni sifatida qaraladi. “Goʻroʻgʻli” dostonida ham Yunus pari va Misqol parilar Eram bogʻidan boʻladi. Demak, shoir sheʼrda anʼnaviy obrazlarni qoʻllab, talmeh orqali oʻz ijodiy niyatini yuzaga chiqaradi.

Yana bir ijodkor Shavkat Rahmon ijodida ham folklor elementlarini uchratishimiz mumkin. Chunonchi, shoir ijodidagi “Bagʻri yomon battollarga bor” deb nomlanuvchi sheʼriga eʼtibor qaratamiz.

*Bagʻri yomon battollarga bor,
Qahri yomon qattollarga bor;
Qon yalagan qassoblarga bor,
Soʻz oʻynagan kazzoblarga bor;
Imonidan kechganlarga bor,
Bor yoʻgʻini yechganlarga bor –
Nega menga kelasan, ey dard,
Nega menga kelasan, ey gʻam!²⁰*

Mazkur sheʼr toʻrt baytdan iborat boʻlib masnaviy shaklida yozilgan. Har bir misrasi 9 boʻgʻindan tashkil topgan, 4+5 shaklida turoqlangan. Sheʼrdagi uch

¹⁹Абдували Қутбиддин. Сен ва сен учун. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1999. – Б. 70.

²⁰Шавкат Раҳмон. Абдиёт оралаб. – Т.: Мовароуннахр, 2012. – Б. 84.

baytdagi misralar o‘zaro (*a-a, b-b, d-d*) qofiyalangani holda, to‘rtinchi baytdagi misralar o‘zaro qofiyalanmagan. Ko‘rinadiki, shoir ushbu she‘rda o‘zbek folklori janrlari tarkibiga kiruvchi so‘z magiyasiga asoslangan kinna kiringanda (ko‘z tekkanda, suqlanganda) aytiladigan so‘zlardan foydalanadi. Odatda, kinna yosh bolalarga, chaqaloqlarga yoshi ulug‘ momolar tomonidan aytiladi. Ushbu jarayonda qatnashuvchi ikkita odam bo‘ladi – kinna soluvchi va kinna soldiruvchi. She‘rda esa shoir dardlardan, g‘amlardan xalos bo‘lishni xohlaydi. Shoirga kimningdir ko‘zi tegmagan, uning qalbi og‘rigan, dard yuqqan, g‘am yuqqan. Shoirga bu g‘am xalqining dard-u tashvishlaridan o‘tgan. Zero, Shavkat Rahmon “g‘am so‘zin xalqimdan avvalroq aytdim, baxt so‘zin aytaman eldan keyinroq”, – deb yozganida mana shu sitamlarni nazarda tutgan desak, xato bo‘lmaydi.

Xalq og‘zaki ijodining ma‘lum janrlari yozma she‘riyatda qanday bo‘lsa, shundayligicha yoki inversiyaga uchragan holatda qo‘llangan. Yana folklordan obraz, motiv, syujet badiiy adabiyotga ko‘chib o‘tdi. Biz yuqorida folklor ta‘sirida yaratilgan she‘rlarni bevosita badiiy modifikatsiyaga uchragan she‘rlar sifatida qayd etdik. Chunki folklor namunalari badiiy adabiyotdagi she‘rlarning janr tabiatini shakliy-mazmuniy jihatdan o‘zgarishiga zamin yaratgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“She‘riy janrlar tabiatidagi yangilanishlar”** deb nomlangan. Bobning birinchi faslida **“She‘riyatda shakl va mazmun uyg‘unligi”** masalasi o‘rganilgan. Badiiy asar janrini belgilashda mazmun ustuvor hodisami yoki shakl degan savollar o‘zbek adabiyoti ilmida ko‘plab berilgan. Bu borada adabiyotshunoslikda bahslar, tortishuvlar bo‘lgan va hamon davom etmoqda. Mazkur masalaga professor Bahodir Sarimsoqov ham o‘z munosabatini bildirib o‘tgan. Olimning fikricha, mazmun va shakl doimo bir-birini taqozo etadi. Har bir mazmun yoki g‘oya, o‘zining shakliga ega bo‘ladi. Atrofimizdagi – borliqdagi barcha narsalar, voqea-hodisalar mazmun va shakl uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

